

**DUAL TA'LIM TIZMINI HOZIRGI VAQTDA OLIY TA'LIMDAGI O'RNI**

*Qarshi davlat texnika universiteti  
Irrigatsiya va melioratsiya kafedrasi assistent o'qituvchisi  
Safarova Nilufar Vohidovna*

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada dual ta'larning kelib chiqishi nazariy asoslari shuningdek ta'larning ushbu turning maqsad va vazifalari, afzallik va kamchiliklari haqida batafsil bayon qilingan. Dual ta'limi tizimi o'quv va ishlab chiqarish jarayonlarini birlashtirish orqali mutaxassislarni tayyorlashda kuchaytirishga asoslanadi, bu esa o'quv muassasalari bitiruvchilarining kasbiy mahoratini oshiradi.

**Kalit so'zi:** dual ta'lim, kasbiy-hunar ta'limi, ishlab chiqarish, dual ta'lim asoslari.

В данной статье подробно излагаются теоретические основы зарождения дуального образования, а также цели и задачи, преимущества и недостатки данного вида образования. Система дуального образования основана на усилении подготовки специалистов путем совмещения учебного и производственного процессов, что повышает профессиональное мастерство выпускников образовательных учреждений.

**Ключевые слова:** дуальное образование, профессиональное образование, производство, основы дуального образования.

This article describes in detail the theoretical foundations of the origin of dual education, as well as the goals and objectives of this type of education, its advantages and disadvantages. The dual education system is based on strengthening the training of specialists by combining educational and production processes, which increases the professional skills of graduates of educational institutions.

**Keywords:** dual education, vocational education, production, foundations of dual education.

Dual ta'lim shakli professional ta'lim tizimida yo'lga qo'yildi. 2021-2022 o'quv yilidan boshlab, maktabgacha ta'lim, temir yo'l va qurilish kabi sohalarda o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlash maqsadida professional ta'lim muassasalariga dual ta'lim shakli bo'yicha 3 mingdan ortiq yoshlar o'qishga qabul qilind. 2022-2023 o'quv yilida professional ta'lim muassasalariga 4,5 mingdan ortiq yoshlar dual ta'lim shaklida o'qishga qabul qilindi hamda yuqorida aytib o'tilgan sohalarga qo'shimcha ravishda axborot texnologiyalari, yengil sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish kabi sohalarda ham dual ta'lim shaklida kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi. Ta'lim to'g'risidagi Qonunning 17-moddasida dual ta'lim to'g'risida fikr yuritilib, "Dual

ta’lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko‘nikmalarni olishga qaratilgan bo‘lib, ularning nazariy qismi ta’lim tashkiloti negizida, amaliy qismi esa ta’lim oluvchining ish joyida amalga oshiriladi.

Dual ta’lim – bu mutaxassislarni o‘quvchilarning ta’lim infratuzilmasini va o‘quv jarayonida ish beruvchiga jalb qilgan holda, o‘zaro ta’lim doirasidagi mutaxassislar tayyorlash uchun asosdir. Kasbiy munosabatlar tajribasi sifatida ikki tomonlama ta’limni tushunish, ishlab bo‘yicha chiqarish ko‘nikmalarini o‘tkazish, mavzu bo‘yicha o‘zaro munosabatlarning umumiyligi tamoyillari bilan uzviy bog‘liq hisoblanadi. Dual ta’lim jarayonida talaba olgan nazariy bilimlarini bir vaqtning o‘zida korxona yoki tashkilotda amalda qo‘llab, mutaxassislik bo‘yicha ko‘nikma va malakalarini mustahkamlaydi. Bunda talabalarda haqiqiy, ma’lum bir ishlab chiqarish jarayonini tushunishga qaratilgan nazariy bilim va tushunchalarni tarqalish qobiliyatini rivojlantiradi. Ilm jarayonida amaliy faoliyatni aniqlashning prinsipi bilimlarning asosiy maqsadiga asoslanadi.

Dual ta’lim ma’lum bir korxona ehtiyojlariga muvofiq ma’lum bir darajadagi mutaxassislarni tayyorlashda o‘quv va ishlab chiqarish sohalarining kelishilgan o‘zaro ta’sirini o‘z ichiga olgan kasbiy tayyorgarlikni tashkil etishning innovatsion shakli tushuniladi. Bunga misol Qarshi texnika universiteti suv xo’jaligi va melioratsiya bakalavr yo’nalishi 3-bosqich talabalariga professor-o‘qituvchilari rahbarligida 2024-2025-yil sentyabr va oktyabr oylarida dual amaliyoti Qashqadaryo viloyatida joylashgan ishlab chiqarish korxonalarida, shiningdek universitetning ilmiy va o‘quv laboratoriyalari dual tizimda o‘tkazildi.

**Xulosa qilib aytganda**, dual ta’lim talabalarini bilim, ko‘nikma va malakalarini oshirib, ta’lim muassasasi va ishlab chiqarish korxonalarining hamkorligini mustahkamshga xizmat qiladi. Bugungi kunda ushbu tizim Germaniya, Avstriya, Shveystariya va Koreya Respublikasi kabi mamlakatlarda iqtisodiyotni rivojlantirishda juda katta o’ringa ega. Biz bilamizki, Germaniya o‘zining ta’lim tizimiga dual ta’limni bir necha yillar oldin joriy qilgan. Germaniyada dual ta’lim rivojlanishining asosiy omili qonunchilikda dual ta’lim ishtirokchilarining (korxona, o‘quvchi, ta’lim muassasasi) vazifalari va majburiyatları aniq belgilab qo‘yilgan. Germaniyada 1,4 million yoshlar dual ta’lim shaklida ta’lim olishadi. Germaniyada har yili 500 ming o‘quvchi dual ta’limda ishtirok etish uchun korxonalar bilan shartnomaga imzolashga erishadi va 74 foiz yoshlar o‘qishni yakunlagandan so’ng ish beruvchi bilan mehnat shartnomasi imzolashga erishadi. Korxona tomonidan o‘quvchi(lar)ga malakali va maxsus sinovdan o’tgan hamda sertifikatga ega bo’lgan ustoz biriktiriladi. Hattoki yoshlarni kasbga yo’naltirish va kasblar to’g’risida tushunchaga ega bo’lishi uchun 7-sinfdan boshlab o‘quvchilar korxonalarda yiliga 2-4 haftalik tanishuv (stajirovka) o’tashadi. Yoshlar o’zlari borgan korxona va

tashkilotlar faoliyati bilan tanishib, kasblar to'g'risida ma'lumotga ega bo'lgandan so'ng, o'zi qiziqish bildirgan kasb bo'yicha korxona va tashkilotlar bilan shartnoma imzolaydi va dual ta'limda tahsil olish uchun ta'lim muassasasiga ushbu imzolangan shartnoma bilan hujjatlarini topshiradi.

Ta'lim tizimi transformasiyasi jarayonida yangi professional ta'lim tiziming o'rni va ahamiyatini oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

1. Professional ta'lim tizimini mehnat bozoridagi ulushi yuqori ekanligidan kelib chiqib oliv ma'lumot talab etilmaydigan ish o'rinaliga mazkur yangi tizimda kadrlar tayyorlashni bosqichma-bosqich oshirib borish
2. Professional ta'lim tizimini xalqaro ta'lim tizimi ilg'or tajribalaridan kelib chiqib takomillashtirib borish choralarini belgilash va amalga oshirishda davlat hamda ish beruvchilarning ishtirokini kengaytirish.
3. Xalqaro miqyosidagi o'rta bo'g'in kadrlariga bo'lgan ehtiyojni qondirish va mehnat resurslari eksportida O'zbekiston ulushini yanada kengaytirish uchun professional ta'lim va xalqaro mehnat bozoridagi ish beruvchilarning to'g'ri hamkorligini rivojlantirish.
4. Ichki mehnat bozorining ustuvor yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda ayrim kasblar va mutaxassisliklar bo'yicha o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlashda davlat buyurtmasining oshirish;

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :**

1. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019 yil 6 sentyabrdagi PF5812-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi// Xalq so'zi, 2020 yil 24 yanvar.
4. Mirziyoev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi 2020 yil 30 sentyabr.
5. <http://www.lex.uz> – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining qonunchilik hujjatlari sayti.
6. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot. Darslik. Qayta ishlangan va to'ldirilgan 3-nashri. – T.: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "FAN" nashriyot davlat korxonasi, 2019. – 140-b.
7. Abdurahmonov Q.X. Inson taraqqiyoti. Darslik. – T.: «Fan va texnologiya», 2013 yil. - 476 b.
8. Mejdnarodnaya standartnaya klassifikastiya obrazovaniya (MSKO-2011) // <http://www.uis.unesco.org/Education/Documents/isced-2011-ru.pdf>